

## SUYUQLIKLARNING ZICHЛИGINI PIKNOMETR YORDAMIDA ANIQLASH

Rahimova Volida Karim qizi  
Buxoro davlat tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** Piknometr – bu muayyan hajmga ega bo`lgan shisha idishdir. Piknometr yordamida suyuqliklar va sochiluvchan jismarning zichligini aniqlash mumkin. Ushbu maqolada distillangan suvning zichligini 1000  $\frac{kg}{m^3}$  ekanligini bilgan holda, piknometr yordamida suyuqliklarning zichligini aniqlash yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Zichlik, piknometr, suyuqliklar, fizika, massa, hajm, tarozi.

### ASOSIY QISM

Hajm birligidagi modda massasi bilan o`lchanadigan kattalikka **zichlik** deyiladi.

$$\rho = \frac{m}{V}$$

Bunda  $\rho$  - zichlik, birligi XBS da [ $kg/m^3$ ]

Piknometr – bu muayyan hajmga ega bo`lgan shisha idishdir. Ko`pchilik piknometrlarning bo`ynilarida belgi mavjud bo`lib, belgigacha suyuqlik quyiladi.

Suyuqlik zichligini topish formulasini keltirib chiqaramiz. Toza suv zichligini topish formulasini chiqarish uchun piknometr massasini  $M$ , piknometr va suv massasini  $M_0$  bilan belgilaymiz. U holda toza suv zichligi  $\rho_0$  quyidagicha topiladi:

$$\rho_0 = \frac{M_0 - M}{V} \quad (1)$$

buerda  $V$ - piknometr hajmi. Tekshiriladigan suyuqlik solingan piknometr massasini  $M_1$  bilan belgilasak, suyuqlik zichligi  $\rho_s$  quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho_s = \frac{M_1 - M}{V} \quad (2)$$

(1) va (2) formulalardan  $V$  larni topamiz:

$$V = \frac{M_0 - M}{\rho_0} \quad \text{va} \quad V = \frac{M_1 - M}{\rho_s}$$

$V$ - hajmlar o`zaro teng bo`lganligi uchun:

$$\frac{M_0 - M}{\rho_0} = \frac{M_1 - M}{\rho_s}$$

bo`ladi, u holda ishchi formula quyidagicha topiladi:

$$\rho_s = \frac{M_1 - M}{M_0 - M} \cdot \rho_0 \quad (3)$$

(3) formula yordamida tekshiriladigan suyuqlikning zichligi topiladi.

Bu yerda

$\rho_0$  – tajriba o`tkazish temperaturasidagi suvning zichligi (tablitsadan olinadi);



M – bo`sh piknometrning massasi;

$M_0$  – suvli piknometrning massasi;

$M_1$  – tekshiriladigan suyuqlik bilan birga piknometrning massasi.

### Ishni bajarish tartibi

1. Piknometrning tozaligiga ishonch hosil qilgandan so`ng, piknometr massasi M ni o`lchang.

2. Piknometrga toza suv soling (begigacha),  $M_0$  suvli piknometrning massasini o`lchang. (Bu holda piknometr devorlarida xavo pufakchalari bulmasligi kerak).

3. Suvni bo`shating va piknometri yuvib quruting. So`ngra piknometrga tekshiriladigan suyuqliknini soling (belgigacha),  $M_1$  – tekshiriladigan suyuqlikligi piknometr massasini o`lchang.

4. (3) formula yordamida tekshirilayotgan suyuqlikning zichligini hisoblab toping. Uy temperaturasida ( $18-20^{\circ}\text{C}$ ) suvning zichligi  $\rho_0 = 1 \left[ \frac{\text{g}}{\text{sm}^3} \right] = 1000 \left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$

5. Tajribani 3 marta takrorlab natijalarini jadvalga yozing.

6. Tekshirilayotgan suyuqlik zichligining o`rtacha qiymatini hisoblang:

$$\langle \rho_s \rangle = \frac{\rho_1 + \rho_2 + \rho_3}{3}$$

7. Absolyut xatoliklarni hisoblang:

$$\Delta\rho_{s1} = |\langle \rho \rangle - \rho_1|$$

$$\Delta\rho_{s2} = |\langle \rho \rangle - \rho_2|$$

$$\Delta\rho_{s3} = |\langle \rho \rangle - \rho_3|$$

8. O`rtacha absolyut xatolikni hisoblang:

$$\langle \Delta\rho_s \rangle = \frac{\Delta\rho_1 + \Delta\rho_2 + \Delta\rho_3}{3}$$

9. Haqiqiy qiymatni hisoblang:

$$\rho_h = (\langle \rho_s \rangle \pm \langle \Delta\rho_s \rangle)$$

10. Nisbiy xatolikni aniqlang:

$$\varepsilon = \frac{\langle \Delta\rho_s \rangle}{\langle \rho_s \rangle} \cdot 100\%$$

11. Natijalarini jadvalga yozing.

№	M [kg]	$M_0$ [kg]	$M_1$ [kg]	$\rho_s$ $\left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$	$\langle \rho_s \rangle$ $\left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$	$\Delta\rho_{s1}$ $\left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$	$\Delta\rho_{s2}$ $\left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$	$\Delta\rho_{s3}$ $\left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$	$\langle \Delta\rho_s \rangle$ $\left[ \frac{\text{kg}}{\text{m}^3} \right]$	$\varepsilon$ [%]
1										
2										
3										

## XULOSA

Demak, suyuqliklar zichligini piknometr yordamida aniqlash uchun avvalo distillangan suvning zichligini  $\rho_0 = 1 \left[ \frac{g}{sm^3} \right] = 1000 \left[ \frac{kg}{m^3} \right]$  ekanligidan foydalanib, ishchi formulani keltirib chiqarishimiz kerak ekan. So`ngra ishni boshlab, bo`sh piknometr massasini o`lchab M harfi bilan, suvli piknometr massasini o`lchab M<sub>0</sub> bilan va o`rganilayotgn suyuqlikli piknometr massasini M<sub>1</sub> bilan belgilab olib,  $\rho_s = \frac{M_1 - M}{M_0 - M}$ .  $\rho_0$  formula yordamida suyuqlikning zichligini hisoblashimiz kerak ekan. Albatta o`lchash davomida yo`l qo`ygan xatoliklarimizni ham hisoblab chiqishimiz lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Remizov A.N. “Tibbiy va biologik fizika” 2005
2. Rahimova V., Bozorov E. Klinik dozimetriya fanining “Ionlovchi nurlanishlar va ularning asosiy xususiyatlari” nomli ma’ruza mashg’ulotini “Fishbone” metodini qo’llash orqali o’qitish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
3. Xojuevich B. E. et al. “AJURLI ARRA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “ASOSIY DOZIMETRIK KATTALIKLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //E Conference Zone. – 2022. – S. 11-15.
4. Xojuevich B. E. et al. “BESHINCHISI ORTIQCHA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “KLINIK DOZIMETRIYA UCHUN ASBOBLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 15. – №. 1. – S. 93-97